

MATNAZAR ABDULHAKIMNING “IBODAT” SHE’RI TAHLILI

Polvonnazarova Bibixon Shuxratovna

UrDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyati vakili Matnazar Abdulhakim va uning “Ibodot” she’ri tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: she’r, shoir, iltijo, ibodat, ohoriylik...

Annotation: This article analyzes the representative of modern Uzbek poetry Matnazar Abdulhakim and his poem "Ibodot".

Key words: poem, poet, supplication, prayer, prayer...

Аннотация: В данной статье анализируется представитель современной узбекской поэзии Матназар Абдулхаким и его поэма «Ibodot».

Ключевые слова: стихотворение, поэт, мольба, молитва, молитва...

Xorazm adabiy muhitining taniqli vakili Matnazar Abdulhakim iste’dodli shoir, nozikta’b jurnalist, zukko adabiyotshunos, mohir tarjimon sifatida mamlakatimizda tilga tushgan, e’tibor va e’zoz topgan ijodkor edi. Matnazar Abdulhakim inson qalbidagi nozik istaklarning tom ma’nodagi kuychisi ekanligi to’g’risidagi fikr-mulohazalar bejiz emas, albatta. Bu haqida ijodkor suhbatlaridan birida shunday degan edilar: “Ko’ngil degan so’zning o’zida “shoir”ning ma’nodoshligi mavjud. Agar inson ruhiyati qirralarining mubham hamda muayyan qarorgohini ko’ngil deb aytadigan bo’lsak, uning qaysidir ma’noda va qaysidir darajada shoir bo’lmay iloji yo’q. Men shoirlilik deganda, albatta, she’r yozishnigina ko’zda tugayotganim yo’q. Chunki so’z shoirlilikning, ehtimol eng oxirgi unsuridir, shoir ko’ngilning ilojisiz qolgan paytlarida turli mushkulotlarni daf qilishi lozim bo’lganida asqotadigan aslahasidir.”

“Ibodot” she’ri shoir ijodidagi ezgu tilak shaklida yaralgan bebaho she’r desak mubolag’a bo’lmaydi. Har bir tirik jon borki, bu hayotga kelgan ekan o’zining yagona ishonchi, suyanchi bo’lgan zurriyot qoldirishning istagida bo’ladi. Chunki insonlarning hayoti davomida suyanadigan yagona suyanchi, yashashda davom etishga undaydigan yagona umidi, ko’zlarining nuri-yu, qalblarining quvonchi bu, shubhasiz, farzanddir. Ular bo’lmasa na hayotida ma’no va na qalbida huzur bo’ladi. Shoirning “Ibodot” she’rida ham aynan shu xususdagi ezgu niyatlar juda chiroyli tarzda ochib berilgan:

Rad	etmagil	dahriy	deb	meni,
Mustajob	et	ezgu		duoim.

O'g'il ko'rsin o'g'li yo'q odam,
Qizi yo'qqa qiz ber, Xudoyim.

Xudoyimga iltijo tarzida boshlangan bu she'rda shoir o'zini Allohning marhamatidan noumid dahriyga chiqarib qo'ymasligini va bir ezgu niyati mustajob bo'lishini istaydi. Shoir Allohning o'g'li yo'qqa o'g'il, qizi yo'qqa qiz berishini istab duo qiladi.

Umid bilan dunyoga kelgan
Farzandsizlik dog'in tuymasin
Hech parranda, hech darrandaning,
Qo'y, iloyim, pushti kuymasin.⁵²⁵³

Inson dunyoga kelibdiki bir umid ila yashaydi. Shunday umidlardan biri farzand ko'rish umididir. Nafaqat inson, balki, Alloh yaratgan barcha yaratqalar o'zidan zurriyot qoldirishni istaydi. Shuning uchun shoir ikkinchi misrada ezgu tilagini umumiyashtiradi. Ya'ni barcha parranda-yu darrandalar nasl qoldirishini istaydi.

Qulunlar ber, saodatmand et
Har bir tulpor, har bir duldulni.
Avlodidan mosuvo qilma
Biron to'ti, biron bulbulni.⁵⁴

Allohimdan tulpor-u dulduzlarni qulunlar ila saodatmand etishini, hech bir to'ti, hech bir bulbulni avlodidan mosuvo etmasligini o'tinib so'raydi. Bu tilaklar shoir dilining naqadar pokligidan, umidlarining esa naqadar sofligidan darak beradi desak adashmagan bo'lamiz.

Qo'ralarga soladi qiron,
Uyalarda qiladi buzg'un.
Bola ko'rsin, baribir, bo'ri,
Jo'ja ochsin, baribir quzg'un.⁵⁵

Bo'rilar qo'ralarga qiron solsa ham bola ko'rsin, quzg'unlar uyalarda buzg'un qilsa ham, xullas, qanday ayb-u nuqsoni bo'lishidan qat'iy nazar baribir ular o'z niyatiga yetishsin demoqchidek shoir, nazarimizda.

Qoraysa ham dastidan falak
Junjiksa ham dastidan bog'lar,
Zag'chalar ko'p sernasl bo'lsin,
O'zlaridan ko'paysin zog'lar.

⁵² Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

⁵³ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

⁵⁴ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

⁵⁵ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

Uzumlar ko'p meva bersinlar,
 Gujumlar keng soya bersinlar.
 Mayli, pechak, mayli, alaf ham
 Ildizini yoya bersinlar.⁵⁶

Zag'cha qushiga ko'pincha hasadgo'ylik timsoli sifatida qaralib kelinadi. Bunga yuqoridagi misralarda ham amin bo'lamiz. Shoir she'rda o'z dastidan falakni qoraytursa ham, bog'larni junjiktirsa ham baribir ularning sernasl bo'lib o'zlaridan ko'payishini tilaydi. Endi shoir ezgu tilaklarini o'simliklarga yo'naltiradi: uzumlarning ko'p meva berishini, gujumlarning keng soya berishini, hatto boshqa o'simliklarga zarari tegib ilashib o'suvchi pechak-u alafning ham ildizlarini keng yoyib o'sishlarini tilaydi.

Keyingi misralarda esa shoir tilaklarini ijobati uchun o'zi nimalarga tayyor ekanligini ko'rsatib beradi. Allohim, menga she'r bermasang berma, lekin, boshqalarni nolon qilmasang bas, men she'rsiz yashashga ham roziman demoqchidek go'yo shoir. Shoir hech kimga yomonlik tilamaydi, hech kimning baxti kemptik bo'lishini, bir umrlik orzusi bo'lgan farzand ko'rishdek baxtdan mahrum bo'lib qolishini istamaydi. Hatto, o'zining yuragiga ilonlarning boshqorong'i bo'lishiga ham rozi. Bu misralarda esa o'ta kuchli, qalbingizni tub-tubiga yetib borishi uchun qayta-qayta o'qishingiz lozim bo'lgan ma'no yashirin:

Menga she'r bermasang bermagil,
 Boshqalarni qilma nolonlar.
 Mayliga, boshqorong'i bo'lsin
 Mening yuragimga ilonlar.⁵⁷

Chunki shoir har bir she'rida yurak yeta olgan dardning mukammal badiiy qiyofasini yaratdi.

Shudir senga o'tinchim, nolam,
 Iltijo ham faryodim doim.
 Baxtimizga O'zing yolg'izsan,
 Shu baxt bizga basdir, Xudoyim.⁵⁸

Yolg'izlik, yagonalik faqatgina Yaratganga xos xislat. Allohning yaratqilari esa doim o'z jufi bilan yaratilgan va o'zidan davomchi qoldirish ularga Odam Atodan merosdir. Bekorda dinimizda ota-onaning farzand dog'ida chekkan ranj-u alami uchun jannat va'da etilmagan. Chunki, farzand buyuk ne'mat. Farzandni buyuk ne'mat deb biladigan oilalar uchun o'zidan zurriyot qoldira olmaslik bu fojia. Aslida har bir inson farzand ko'rishga

⁵⁶ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

⁵⁷ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

⁵⁸ Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.

haqli. Matnazar Abdulhakim ham bu haqlilikni o'z she'rida ohoriy ohanglar ila yoritib beradi. Shoirning Allohga o'tinch, iltijo, faryod-u nola sifatida bitilgan bu she'ri mana necha yildirki millionlab ko'ngillarning dil daftaridan joy olmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulhakimov M. Tafakkur chorrahalarida. –Urganch: Xorazm, 2013.
2. Abdulhakimov M. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, 2017.
3. Matkarimov Sh. Ustoz haqida so'z. –Urganch: Xorazm, 2013.
4. Ollaberganov I. Xorazmlik ijodkorlar. –Urganch: Xorazm, 2019.
5. Solayev Q. To'rtinchi muallim saboqlari.. –Urganch: Xorazm, 2014.